



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
<i>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
<i>Dilsora Shodmonova</i>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<i>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<i>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</i>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<i>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</i>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
<i>Lola Mannobova</i>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
<i>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
<i>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
<i>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</i>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
<i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</i>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
<i>Alimova Gulrux Farhod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
<i>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
<i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</i>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
<i>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</i>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
<i>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</i>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
<i>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</i>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	

FINLYANDIYA TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHINI BAHOLASH MEXANIZMLARI VA ULARNI O'ZBEKISTON MAKTABLARIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Xudaybergenova Zuxra Isakovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining
1-bosqich magistranti (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholashning zamonaviy mexanizmlari, xususan, formativ va summativ baholash usullarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Finlyandiya tajribasida o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan baholash, individual yondashuv, o'qituvchining erkinligi va stresssiz nazorat tizimining samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, ushbu baholash mexanizmlarini O'zbekiston umumta'lim maktablari amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini oshirish va baholash tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Finlyandiya ta'lim tizimi, baholash mexanizmlari, formativ baholash, summativ baholash, o'quvchilar o'zlashtirishi, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv, O'zbekiston maktablari, pedagogik tajriba, individual yondashuv.

Abstract: This article analyzes modern mechanisms for assessing student achievement in the Finnish education system, with particular emphasis on the distinctive features of formative and summative assessment methods. The Finnish experience demonstrates the effectiveness of student-centered assessment, individualized approaches, teacher autonomy, and a stress-free monitoring system. The study also provides a scientific rationale for adapting these assessment mechanisms to the practice of general secondary schools in Uzbekistan, highlighting existing challenges and potential solutions. The findings are significant for improving educational quality and enhancing assessment systems.

Key words: Finnish education system, assessment mechanisms, formative assessment, summative assessment, student achievement, educational quality, innovative approach, schools of Uzbekistan, pedagogical experience, individualized approach.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные механизмы оценки учебных достижений учащихся в системе образования Финляндии, в частности особенности методов формативного и суммативного оценивания. Финский опыт демонстрирует эффективность личностно-ориентированного оценивания, индивидуального подхода, педагогической автономии учителя и системы контроля, не создающей излишнего стрессового воздействия на учащихся. Также научно обоснованы возможности адаптации данных механизмов оценивания к практике общеобразовательных школ Узбекистана, выявлены существующие проблемы и предложены перспективные пути их решения. Результаты исследования имеют важное значение для повышения качества образования и совершенствования системы оценивания.

Ключевые слова: система образования Финляндии, механизмы оценивания, формативное оценивание, суммативное оценивание, учебные достижения учащихся, качество образования, инновационный подход, школы Узбекистана, педагогический опыт, индивидуальный подход.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimini takomillashtirish va uning sifatini oshirish dunyo mamlakatlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilarning bilimini baholash tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini belgilaydigan muhim omil sifatida tan olinmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, baholash jarayoni nafaqat nazorat vositasi bo'lib qolmasdan, balki o'quvchining bilim olish motivatsiyasini oshirish, erkin fikrlashni rivojlantirish va individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi kerak.

Jahon ta'lim tizimida yuksak natijalarga erishgan davlatlardan biri bo'lgan Finlyandiya ta'lim sifati, innovatsion yondashuvlari va o'quvchilarni baholash mexanizmlarining samaradorligi bilan alohida ajralib turadi. Bu mamlakatda baholash jarayonlari o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lib, unda o'quvchilarning psixologik



holati, individual rivojlanish sur'ati va amaliy ko'nikmalari asosiy mezon sifatida qaraladi. Finlyandiya maktablarida an'anaviy test va qat'iy nazoratdan ko'ra formativ baholash, doimiy tahlil va o'qituvchining kuzatuviga katta ahamiyat beriladi. Bu esa o'quvchilarda stresssiz ta'lim muhitini shakllantirish bilan birga, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda baholash mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish hamda o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi tizimlar ishlab chiqilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Finlyandiya tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu maqolaning maqsadi Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlarini tahlil qilish va ularni O'zbekiston umumta'lim maktablari amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida baholash tizimidagi mavjud muammolar, ilg'or pedagogik tajribalar va istiqbolli yechimlar ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

O'zbekistonning 10 ta pedagogika universiteti rahbarlari va professorlaridan iborat delegatsiyaning 2020-yildan so'ng amalga oshirgan safari Finlyandiya ta'lim tizimini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu safar davomida Jyväskylä universiteti singari ta'lim muassasalari tajribasi o'rganildi. Ushbu safarlar va tadqiqotlar natijasida Finlyandiya ta'lim modelining O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga bevosita ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan. Ushbu maqola Finlyandiya ta'lim tizimining asosiy tamoyillari, o'quvchilarning bilimni baholashga bo'lgan yondashuvlar va uning muvaffaqiyat omillarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, Finlyandiya tajribasini O'zbekistonning umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimni baholash amaliyotlariga moslashtirish imkoniyatlari, afzalliklari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan cheklovlar ilmiy asosda muhokama qilinadi.

Bugungi kunda Finlyandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng samarali va ilg'or tizimlardan biri sifatida tan olinadi. Ushbu mamlakat ta'limining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilar bilimni baholashning insonparvar, adolati va rivojlantiruvchi mexanizmlariga bog'liqdir. Finlyandiya maktablarida baholashning asosiy maqsadi o'quvchini jazolash yoki saralash emas, balki uning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Finlyandiya ta'lim tizimida baholash jarayoni o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lib, unda har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish sur'ati hisobga olinadi. Maktablarda boshlang'ich sinflarda an'anaviy raqamli baholash tizimi deyarli qo'llanilmaydi. Asosan og'zaki tavsiflovchi baholash usullaridan foydalaniladi. Bu esa o'quvchilarda ortiqcha bosim va qo'rquvni kamaytirib, bilimga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Fin maktablarida 10 ballik ta'lim tizimi joriy etilgan, biroq 7-sinfgacha o'quvchilarga faqat og'zaki baho qo'yiladi: o'rtachadan past, qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1- va 3-sinflarda baholashning hech qanday ko'rinishi mavjud emas. Finlyandiya davlatidagi barcha maktablar "Wilma" davlat elektron tizimiga ulangan bo'lib, bu elektron maktab kundaligi hisoblanadi va har bir ota-onaning elektron tizimga kirishi uchun shaxsiy kodi bor. Pedagoglar baho qo'yib, davomatni belgilab, o'quvchining maktabdagi faoliyati haqida ma'lumot berib boradilar; shuningdek, "bo'lajak o'qituvchi", ijtimoiy xodim, psixolog, feldsher ham shu yerdan kerakli ma'lumotni oladi. Fin maktablarida o'quvchilar olingan baholardan xavotirlanmaydilar.

Maktablarning hududi devor bilan o'ralmagan, maktabning kirish qismida nazoratchilar ham yo'q. Aksariyat maktablarning kirish darvozasi avtomat tizimga ega bo'lib, binoga darslar jadvali asosida kirish mumkin. Iliq havoda darslar ko'pincha ochiq havoda, bog'larda yoki maxsus jihozlangan ayvonlarda o'tkaziladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Finlyandiya tajribasida formativ baholash muhim o'rin tutadi. Formativ baholash o'quv jarayonida muntazam ravishda amalga oshiriladigan baholash turi bo'lib, u o'quvchining bilimni qay darajada o'zlashtirayotganini aniqlash va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchining faoliyatini kuzatadi, unga individual tavsiyalar beradi hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada baholash jarayoni nazorat vositasidan ko'ra rivojlantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Finlyandiya maktablarida o'qituvchilarga katta pedagogik erkinlik berilgan. O'qituvchi baholash mezonlarini o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi va ehtiyojlariga qarab erkin tanlay oladi. Bu esa ta'lim jarayonining moslashuvchanligini ta'minlaydi. Baholashda testlardan ko'ra amaliy topshiriqlar, loyihalar, ijodiy ishlar va jamoaviy ish natijalariga asosiy e'tibor qaratiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida ham baholash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilar bilimni baholash, xalqaro baholash dasturlariga integratsiyalashuv va o'qitishning innovatsion usullarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan Finlyandiya tajribasini o'rganish va milliy tizimga moslashtirish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, O'zbekiston maktablarida formativ baholash tizimini keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki an'anaviy baholash tizimi ko'proq yakuniy natijani aniqlashga qaratilgan bo'lsa, formativ baholash o'quvchining o'quv jarayonidagi rivojlanishini doimiy kuzatib borish imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchilarning erkin fikrlashi, tahliliy yondashuvi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, baholash jarayonida o'quvchilarning psixologik holatini hisobga olish ham muhimdir. Finlyandiya tajribasida stresssiz ta'lim muhitini yaratishga katta e'tibor qaratiladi. O'zbekiston maktablarida ham o'quvchilarga ortiqcha bosim o'tkazmaydigan, rag'batlantiruvchi va motivatsion baholash tizimini shakllantirish zarur.

Shuningdek, o'qituvchilarning baholash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini oshirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Finlyandiya pedagoglar yuqori tajribaga ega bo'lib, baholash uslublarini erkin qo'llash imkoniyatiga ega. Shu bois O'zbekistonda ham pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida zamonaviy baholash metodikalariga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Biroq Finlyandiya tajribasini to'liq ko'chirish emas, balki uni milliy mentalitet, bugungi ta'lim sharoiti va o'quv dasturlariga moslashtirish muhim hisoblanadi. Chunki har bir mamlakatning ta'lim tizimi o'zining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlariga ega. Shu bois Finlyandiya tajribasining eng samarali jihatlarini tanlab olish va bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, Finlyandiya ta'lim tizimidagi baholash mexanizmlarini o'rganish O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda, o'quvchilar bilimni adolatli va samarali baholashda hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari insonparvarlik, individuallik va rivojlantiruvchi yondashuv tamoyillariga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Bu tizimda baholashning asosiy maqsadi o'quvchini nazorat qilish emas, balki uning bilim olish jarayonini qo'llab-quvvatlash, erkin fikrlashini rivojlantirish va bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishdan iborat. Ayniqsa, formativ baholash, o'qituvchining erkinligi va stresssiz ta'lim muhiti Finlyandiya ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Finlyandiya tajribasining ayrim samarali jihatlarini O'zbekiston umumta'lim maktablari amaliyotiga moslashtirish ta'lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu jumladan, formativ baholash tizimini keng joriy etish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, rag'batlantiruvchi baholash usullaridan foydalanish va pedagoglarning baholash kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sanaladi.

Shu bilan birga, xorijiy tajribani milliy ta'lim tizimiga joriy etishda mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Finlyandiya tajribasini to'liq ko'chirish emas, balki uning eng samarali elementlarini tanlab olib, bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Demak, Finlyandiya ta'lim tizimidagi ilg'or baholash mexanizmlarini o'rganish va ularni O'zbekiston maktablariga moslashtirish o'quvchilar bilimni adolatli baholash, ta'lim samaradorligini oshirish va xalqaro ta'lim standartlariga mos raqobatbardosh ta'lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabr, 997-son qarori, www.lex.uz
2. Axmadjonova Yo. T., Yaxshiyeva Z. Z., Axmadjonova U. T. Ta'lim sifatini baholash xorij tajribasi misolida o'rganilmoqda // O'qituvchining kasbiy standarti: amaliyotga joriy qilish va istiqboldagi vazifalar.-2021.
3. Ахмаджонова Ё. Т. PISA- Таълим сифатини ошириш мезони // Аграр фан назарияси ва амалиётидаги долзарб муоммолар ва уларнинг ечимлари .- 2020. Т.-821-824 б. 4 том.
4. Antikainen, Ari; Luukkainen, Anna (2008). "Twenty-five Years of Educational Reform Initiatives in Finland" (PDF). University of Eastern Finland. Archived from the original (PDF) on 2017-05-17.
5. Yaxshiyeva Z. Z., Axmadjonova Yo. T., Siddikova Sh. A. Pisa – ta'lim sifatini oshirish mezonini // "Современные тенденции начального образования: интеграция образования и подготовки" Международная научно-практическая конференция. -Джизак, 2021.-с.313-316
6. Kengesbayevich, R. M. (2024). The development of cognitive abilities through the creative process. Ta'lim va innovation tadqiqotlar, 13, 142-144.
7. Tajibay, S., & Kengesbayevich, R. M. (2024). Characteristics of development and socialization of teenagers. American journal of education and learning, 2(5), 886-890.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.